

MAYMUNJON O'SIMLIGINING INSON HAYOTIDAGI O'RNI VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Olimjonova Mohichehra Nurmuhammad qizi

O'zbekiston Finlandiya Pedagogika instituti

2-bosqich talabasi

O'qituvchisi: O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

ass. Z.R.Abdusalomova

Annotatsiya. Maqolada maymunjon o'simligining o'sishi, yashash muhti, hosildorligi, biologik xususiyatlari, dorivorligi, qayerlarda tarqalganligi va qaysi kasaliklarga davoligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: maymunjon, o'sish, rivojlanish, tur, rezavor meva, organik kislatalar, vitaminlar, dorivor.

Аннотация. В статье описаны произрастание, среда обитания, продуктивность, биологические свойства, лечебные свойства растения обезьяны, где оно распространено и при каких заболеваниях используется.

Ключевые слова. Ежевика, рост, развитие, вид, ягода, плод, органические кислоты, витамины, лекарство.

Annotation. The article discusses the growth, habitat, productivity, biological properties, medicinal properties, where it is distributed, and what diseases it is used for.

Key words. blackberry, growth, development, type, berry fruit, organic acids, vitamins, medicine

Maymunjon o'simligi - Ra'noguldoshlar oilasiga masub ko'p yillik buta hisoblanadi. Shimoliy Amerika Yevro Osiyoda 400 dan ortiq turi uchraydi. Shulardan 90 turi asosan ko'k (*Rubus caesius* L) va mayda mevali (*R. nensensis*) turlari Kavkaz, Ukrainaning Janubiy qismida va O'rta Osiyoda uchraydi. Gretsiyada maymunjonni mevasini 2000 yil avval dorivor vosita deb hisoblashgan. [1]O'simlikning bo'yi 50-150 sm gacha yetadigan yotib o'suvchi buta. Poyasi shoxlangan mayda tikonlar bilan qoplangan, bargi 3 bargchali barg bandi tukli va tikanli, bargchalari noto'g'ri tishsimon qirqilgan, oxirgisi tuxumsimon romb shaklda o'tkir ko'pincha yonidagi barglari 2 bo'laklidir. Maymunjonning bir yillik novdalari yoysimon egilgan silindir shaklda ko'p tikonli, ba'zan dag'al tuklar bilan qoplangan bo'ladi. U may-iyun oylarida gullaydi. Guldor novdalari uzun, ularda ko'p gullar o'rnashgan bo'ladi. Mevasi iyun-iyul oylarida pishadi. (1-rasm)

Maymunjon malina avlodidan bo'lgan o'simlikdir. Maymunjon ildiz bachki chiqarmaydi, yer bag'rilab o'sadigan novdalari esa bo'g'imlardan yoki uchlaridan ildiz

otadi va yangi tupchalar hosil qiladi. O'simlikning yirik mevali serhosil navlari I.Michurin tomonidan ixtiro qilingan. Maymunjon 12-15 yil yashaydi. Gullari ikki jinsli, oq ba'zan pushti bo'lib, shingilsimon to'pgulda joylashgan. Mevasi sersuv, shirin nordon, rangi qoramtir, qizil va urug'i mayda. (2-rasm)



1-rasm Maymunjon



2-rasm Maymunjon mevasi

Tarqalishi. O'zbekistoning to'qaylarida, ariq bo'ylarida, jarliklarda va tog' yonbag'irlarida o'sadi. Dala va tomorqabog'larda ham yetishtiriladi. (3-rasm)



3-рasm: Maymunjonning tamorqada issiqxona sharoitida yetishtirish

Dorivor xususiyatlari. Meva tarkibida 4-6 % qand, 0,8-1,4 % organik kislotalar, S vitamin va karotin mavjud. [2] Karotinoid, foliy kislotasi (vitamin B9), C vitamin, K vitamin hamda oz miqdorda E vitamin mavjud. Maymunjon mevasida minerallardan kaliy, mis, kalsiy, magniy va sink bor.

Maymunjon mevasining foydali xususiyatlari immun tizimini mustahkamlaydi , moddalar almashinuvini yaxshilaydi, umuman olganda inson organizimining barcha funksiyalariga ijobiy ta'sir qiladi. U chanqoqni bostirib haroratni tushiradi va kasalliklardan so'ng organizmni tiklanishiga yordam beradi. Oshqazon – ichak tizmi folyatini yaxshilaydi, shu bilan birga asab tizimini mustahkamlaydi va hotirjam uxlashga yordam beradi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, insoni fikrlash qobiliyati va xotirani mustahkamlaydi. Maymunjon o'zida ko'pgina antioksidlarni saqlashi sabab ham organizimdan zararli toksinlarni chiqarib tashlaydi. [3] Maymunjon mevalari hattoki uning barglari va ildizlaridan ham tabobatda keng qo'lanib kelingan. Inson organizimiga zarur bo'lgan ishtahani ochish uchun ham xizmat qiladi. Yana bir qatorda qandli diaved kasalliklariga chalingan insonlarga juda ham foydali hisoblanadi. Bundan tashqari maymunjon o'simligining ildizidan dori vositalar tayyorlanib milk kasalliklarida chayish uchun foydalaniladi. O'simlikning ildizi bahorda yoki kuzda yig'iladi va ildizni yuvib ochiq yerda quritiladi. Ildizda oshlovchi va boshqa moddalar bor, ildizdan tayyorlanga qaynatma, buyrakda toshni maydalab tushirish uchun ichiladi. Maymunjonning shoxlaridan qaynatma tayyorlanib nevrozlarda ichiladi. (4-rasm) Mevasi yangiligida istemol qilinadi, quritib kanservalar tayyorlab ham foydalaniladi. Mevasi shirin va nordon bo'lganligi sababli ko'pchillika manzur bo'ladi.



4-rasm

Maymunjondan oziq-ovqat sanoatida turli konfetlar, likyor, limonatlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Bargida 300 mg % S vitamin bo'ladi. Mevasi tarkibida chumoli va limon kislotalari mavjud. Yo'talga qarshi va boshqa kasaliklarga dori vositalari tayyorlashda qolaversa tabiiy damlama qaynatma, nastoykalar tayyorlashda ham keng qo'laniladi. [3]

Maymunjon o'simligi shifobaxshligi bilan birga zararli jihatlari ham mavjudir. Bu mahsulot allergiyani chiqarish ehtimoli yo'q emas, bundan tashqari o'zida ko'p kislotani saqlashi sabab ham, ham uni ko'p iste'mol qilish yaramaydi.

Xulosa. Organizmdagi ayrim yog'lardan halos bo'lish uchun ham maymunjondan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Maymunjon o'zida B9, K, C, E vitaminlari, qand, organik kislotalar, minerallar mavjud. Ozishni hojlovchilar uchun juda ajoyib mahsulot hisoblanadi. Hozirgi kunda maymunjon o'simligini issiqxonalarda yetishtirilyapti. Bundan ko'zlangan maqsad madaniylashtirish, yerdan unumli foydalanish va xalqimizga bu mahsulotni tezroq yetkazib berish. Shuningdek o'simlikning barglari, mevasi ildizidan tayyorlangan damlamalar dori vositalari inson organizmi uchun juda foydali hisoblanadi. Darhaqiqat xalqimizda bir ibora bor: "Asalni ham ko'pi zarar" deganlaridek, har bir mahsulotni keragidan ortiq iste'mol qilish organizm uchun zararli bo'lishi mumkin.

Tabiatimizni o'zi tabib har bir o'simlik va daraxtlarimizni asrab avaylashimiz va ulardan oqilona foydalanishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Atabayeva N., Qodirxo'jayev O, "o'simlikshunoslik" Toshkent 2016-yil
2. V.Karimov, A.Shomahmudov "Xalq tabobati va zamonaviy ilmiy tibbiyotda qo'laniladigan shifobaxsh o'simliklar" Toshkent 1993
3. Q.H.Haydarov, Q.H.Hojimatov "O'zbekiston o'simliklari" Toshkent 1992
4. www.ziyonet.uz